



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 02 | pp. 46-51 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SAVDO TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY ULGURJI SAVDO HAJMINI EKONOMETRIK BAHOLASH



PhD Maxmatqulov G'olibjon Xolmuminovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada savdo tizimini rivojlantirish jarayonida hududiy ulgurji savdo hajmining o'zgarish dinamikasi baholangan. Tadqiqotda 2010-2024- yillar kesmida O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida ulgurji savdo hajmining dinamikasi statistik va tendensiyaviy usullar asosida tahlil qilingan. Olingan natijalar respublika miqyosida ulgurji savdo hajmi jadal sur'atlarda o'sib borayotganini, biroq Qashqadaryo viloyatining respublika ulgurji savdo hajmidagi ulushi izchil pasayish tendensiyasiga ega ekaniligi ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari esa savdo tizimini hududiy rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish va hududiy savdo tizimini optimallashtirish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar. Savdo tizimi, ulgurji savdo hajmi, hududiy tahlil, tendensiyaviy tahlil, savdo infratuzilmasi, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье оценивается динамика изменения объема региональной оптовой торговли в процессе развития торговой системы. В исследовании на основе статистических и трендовых методов проанализирована динамика объема оптовой торговли в Республике Узбекистан и Кашкадарьинской области за период 2010-2024 годов. Полученные результаты показывают, что объем оптовой торговли в масштабах республики растет быстрыми темпами, однако доля Кашкадарьинской области в объеме оптовой торговли республики имеет тенденцию к последовательному снижению. Результаты исследования позволяют усовершенствовать механизмы территориального развития торговой системы и оптимизировать региональную торговую систему.

Ключевые слова: торговая система, объем оптовой торговли, региональный анализ, анализ тенденций, торговая инфраструктура, экономическое развитие.

Abstract. This article assesses the dynamics of changes in regional wholesale trade volume during the process of developing the trading system. The study analyzes the dynamics of wholesale trade volume in the Republic of Uzbekistan and Kashkadarya region from 2010 to 2024 using statistical and trend analysis methods. The obtained results show that the volume of wholesale trade in the republic is growing rapidly; however, Kashkadarya region's share in the republic's wholesale trade volume demonstrates a consistent downward trend. The research findings provide an opportunity to improve mechanisms for regional development of the trade system and optimize the regional trade structure.

Keywords: Trade system, wholesale trade volume, regional analysis, trend analysis, trade infrastructure, economic development.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo tizimining barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Savdo tizimi tarkibida ulgurji savdo ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ta'minlovchi asosiy bo'g'in sifatida namoyon bo'lib, hududiy iqtisodiy faollik darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri sanaladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida savdo tizimini liberallashtirish va xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvni jadallashtirishga qaratilgan institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lishi ustuvor vazifa sifatida belgilandi [1]. Mazkur jarayon savdo tizimining raqobatbardoshligini oshirish va hududiy savdo, xususan ulgurji savdo hajmini tahlil qilishning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Hududiy kesimda ulgurji savdo hajmining o'zgarishini baholash savdo infratuzilmasining rivojlanish darajasi, logistika tizimining samaradorligi hamda hududlarning respublika savdo tizimidagi nisbiy o'rnini aniqlash imkonini beradi. Mazkur holat savdo siyosatini shakllantirishda hududiy yondashuvni kuchaytirish va hududlarda ulgurji savdo infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi [2, 3].

Adabiyotlar sharhi

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda savdo tizimini rivojlantirishda ulgurji savdoning hududiy va funksional jihatlari alohida e'tiborga olinmoqda. T.Nugroho va hammualliflar [4] ulgurji bozorlarni rivojlantirishda logistika va transport omillarining ahamiyatini asoslab bergan bo'lsa, D.Kholmamatov [5] esa O'zbekiston sharoitida ulgurji savdo aylanmasi va uni rivojlantirishdagi muammolarni tahlil qilgan.

Y.Yurchyshyn va hammualliflar [6] savdo korxonalari faoliyatiga tashqi omillarning ta'sirini ekonometrik modellashirish orqali baholab, prognozlash imkoniyatlarini ko'rsatgan. G. Guseinov [7] esa hududiy kesimda ulgurji va chakana savdo aylanmasining notekis rivojlanishini aniqlagan. Mazkur tadqiqotlar savdo tizimini barqaror rivojlantirishda hududiy ulgurji savdo hajmini ekonometrik tahlil qilishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda 2010-2024-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida ulgurji savdo hajmining dinamikasi statistik va tendensiyaviy tahlil usullari yordamida baholandi. Shuningdek, hududiy ulgurji savdo hajmining respublika ko'rsatkichlariga nisbatan ulushi qiyosiy tahlil asosida aniqlanib, olingan natijalar umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar

Savdo tizimini rivojlantirish jarayonida hududiy ulgurji savdo hajmini tizimli va chuqur tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki ulgurji savdo hajmi savdo tizimining asosiy bo'g'ini sifatida ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ta'minlaydi hamda hududiy iqtisodiy faollik darajasini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Hududiy kesimda ulgurji savdo hajmining dinamikasini baholash savdo infratuzilmasining rivojlanish darajasi, logistika tizimining samaradorligi hamda hududning respublika savdo tizimidagi nisbiy o'rnini

aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, hududiy ulgurji savdo hajmini tahlil qilish savdo tizimida mavjud nomutanosibliklar va hududlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini aniqlashda muhim vositalardan biridir. Ulgurji savdo hajmining ayrim hududlarda tez, boshqalarida esa sekin o'sishi savdo resurslarining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganidan dalolat beradi. Bu esa savdo siyosatini shakllantirishda hududiy yondashuvni kuchaytirish, logistika markazlarini joylashtirishni optimallashtirish hamda hududiy savdo infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli choralarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Yuqoridagi jihatlarni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatda ulgurji savdo hajmining[8] o'zgarishiga to'xtalib o'tamiz (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston respublikasi va Qashqadaryo viloyatda ulgurji savdo hajmi o'zgarish dinamikasi (mlrd.so'm)

Yillar	O'zbekiston Ulgurji savdo hajmi mlrd.so'm	Qashqadaryo Ulgurji savdo hajmi mlrd.so'm	Viloyat ulushi %
2010	11774,10	475,30	4,04
2011	15476,70	729,10	4,71
2012	18018,80	873,10	4,85
2013	22001,68	1180,08	5,36
2014	25512,62	1420,36	5,57
2015	29156,20	1530,71	5,25
2016	35396,46	1812,93	5,12
2017	38799,69	1807,87	4,66
2018	57481,98	2331,64	4,06
2019	86538,27	2707,17	3,13
2020	128741,74	3061,05	2,38
2021	183112,28	3767,95	2,06
2022	258444,05	6158,34	2,38
2023	385591,91	7592,73	1,97
2024	456623,26	8949,15	1,96
2024/2010	38,78	18,83	0,49

*Manba: Muallif tomonidan statistik ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqilgan.

2010–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida ulgurji savdo hajmining dinamikasi savdo tizimida chuqur tarkibiy va miqdoriy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davr boshida respublika bo'yicha ulgurji savdo hajmi 11774,1 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 456 623,3 mlrd so'mga yetgan. Natijada, mazkur davr mobaynida ulgurji savdo hajmi qariyb 38,8 baravarga oshgan. Ushbu o'sish savdo tizimining makroiqtisodiy rivojlanishdagi rolini kuchayganini hamda ulgurji savdo operatsiyalarining iqtisodiyotdagi ahamiyati sezilarli darajada ortganini anglatadi.

Respublika miqyosida ulgurji savdo hajmining vaqt mobaynida o'sish jarayoni bir maromda emas, balki jadallashib boruvchi xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2018-yildan keyingi davrda ulgurji savdo hajmining keskin oshishi kuzatilib, bu holat savdo faoliyatini tartibga solishdagi institutsional islohotlar, narxlarning inflyatsion o'sishi hamda savdo infratuzilmasining kengayishi bilan izohlanadi.

Qashqadaryo viloyatida ulgurji savdo hajmi ham ijobiy dinamikani namoyon etgan. Xususan, 2010-yilda viloyatda ulgurji savdo hajmi 475,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 8949,2 mlrd so'mga yetgan. Bu esa 14 yil davomida 18,8 baravarlik o'sishni anglatadi. Viloyat miqyosida kuzatilgan o'sish savdo faoliyatining mutlaq hajmi ortib borayotganini ko'rsatsa-da, respublika darajasidagi o'sish sur'atlari bilan taqqoslaganda, ushbu jarayon nisbatan sustroq kechganini ko'rish mumkin.

Viloyat ulgurji savdo hajmining dinamik tahlili shuni ko'rsatadiki, 2010-2014-yillar davomida o'sish nisbatan barqaror va izchil bo'lgan. Aynan ushbu davrda Qashqadaryo viloyatining respublika ulgurji savdo hajmidagi ulushi ham ortib borib, 2014-yilda 5,57 foizga yetgan. Bu ko'rsatkich viloyatning savdo tizimidagi nisbiy mavqei mustahkamlanganini ifodalaydi. Biroq 2015-yildan keyingi davrda mazkur ulush izchil kamayish tendensiyasini namoyon etgan.

Xususan, 2010-yilda viloyat ulushi 4,04 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 1,96 foizga tushgan. Natijada, tahlil qilinayotgan davr mobaynida viloyatning respublika ulgurji savdo hajmidagi ulushi qariyb 0,49 baravarga qisqargan. Statistik nuqtayi nazardan, ushbu ko'rsatkich pasayuvchi trendga ega bo'lib, bu respublika savdo hajmining ayrim hududlarda, ayniqsa markaziy va yirik savdo-logistika markazlari joylashgan hududlarda tezroq o'sayotganini anglatadi.

Mazkur holat Qashqadaryo viloyatida ulgurji savdo hajmi mutlaq ko'rinishda oshib borayotgan bo'lsa-da, uning respublika savdo tizimidagi nisbiy o'rni zaiflashib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa hududiy savdo infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, logistika tarmoqlarining cheklanganligi, yirik ulgurji savdo operatsiyalarining asosan boshqa hududlarda jamlanishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, hududiy savdo faoliyatining tarkibiy jihatdan chakana savdoga nisbatan yo'naltirilganligi ham ulgurji savdo hajmining respublika miqyosida sekinroq o'sishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, o'tkazilgan tendensiyaviy va statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida ulgurji savdo tizimi jadal rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayon hududlar kesimida notekis xarakterga ega. Qashqadaryo viloyati misolida savdo hajmining mutlaq o'sishi respublika o'sish sur'atlariga mos kelmayotgani, viloyat ulushining pasayib borayotgani bilan tasdiqlanadi. Bu holat savdo tizimini rivojlantirishda hududiy yondashuvni kuchaytirish, viloyatlarda ulgurji savdo infratuzilmasini rivojlantirish hamda hududning respublika savdo tizimidagi ulushini oshirishga qaratilgan iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa va tavsiyalar

O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, 2010–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida ulgurji savdo hajmi jadal sur'atlarda oshgan bo'lsa-da, Qashqadaryo viloyatining respublika ulgurji savdo hajmidagi ulushi izchil pasayish tendensiyasini

namoyon etgan. Mazkur holat hududiy savdo infratuzilmasini rivojlantirish, logistika tizimini takomillashtirish hamda viloyatda ulgurji savdo subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli choralarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur holat hududiy savdo infratuzilmasini rivojlantirish bilan bir qatorda, savdo tizimini barqaror rivojlantirishning ekonometrik modellarini ishlab chiqish metodologiyasini takomillashtirish, xususan hududiy omillarni, vaqt dinamikasini va strukturaviy o'zgarishlarni hisobga oluvchi modellarni qo'llash zarurligini taqozo etadi. Bu esa savdo tizimini hududiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning ilmiy asoslanganligini oshirish va ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni, <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. Do'stmirzayevich, J.R.F. (2023). A MODEL APPROACH TO LONG-TERM FORECASTING OF ELECTRICITY SUPPLY. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(10), 41-45.
3. Jo'rayev, F.D., et al. Algorithms for improving models of optimal control for multi-parametric technological processes based on artificial intelligence. *E3S Web of Conferences*. Vol. 460. EDP Sciences, 2023.
4. T. Nugroho, C. Balijepalli, and F. Zukhruf, "Analysing wholesale market development strategies for decongesting city centre considering retailers' procurement choices," *Case Studies on Transport Policy*, vol. 18, Art. №:101278, Dec. 2024, doi: 10.1016/j.cstp.2024.101278.
5. D. Kholmamatov, "State of wholesale trade turnover and problems in the development of wholesale trade enterprises in Uzbekistan," *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, vol. 6, №: 3, pp. 1010–1018, 2025, doi: 10.51699/cajitmf.v6i3.953.
6. Y. Yurchyshyn, I. Parasii-Verhunenko, K. Bezverkhyi, N. Semenyshena, and L. Kharchevnikova, "Econometric modelling and forecasting of the impact of external factors on trading enterprise activities: An empirical study of Ukraine," *Future Business Journal*, vol. 11, Art. №: 278, Dec. 2025, doi: 10.1186/s43093-025-00278.
7. G. Guseinov, "Analysis of wholesale and retail trade turnover in the Guba-Khachmaz economic region," *Nature and Science*, vol. 7, №: 9, pp. 4–11, Sept. 2025, doi: 10.36719/2707-1146/60/4-11.
8. Махматкулов, Г., & Кузиев, А. (2025). Системный подход к инновационному развитию сферы торговых услуг для населения региона. *Передовая экономика и педагогические технологии*, 2(2), 596-506.
9. Махматқулов, Г. Х. М. (2024). Savdo sohasini samarali rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 101-105.
10. Махматкулов, Г. (2024). Композитная оценка торговых услуг в динамике повышения экономической возможности региона. *Передовая экономика и педагогические технологии*, 1(2), 327-334.

11. Махматкулов, Г., Сайфуллаев, С., & Бобомирзаев, А. (2024). Эконометрический анализ основных показателей развития торговых услуг. Экономическое развитие и анализ, 2(4), 139-149.
12. Махматкулова, Г. Х. (2024). Raqamli transformatsiyaning savdo xizmatlarida urni. Innovation in the modern education system, 5(45), 122-131.
13. Махматкулов, Ғ. (2022). Аҳолига савдо хизматларини инновацион ривожлантириш салоҳиятини баҳолашда тренд моделларини танлаш мезонлари (қашқадарё вилояти мисолида). Iqtisodiyot va ta'lim, 23(4), 381-386.
14. Махматкулов, Ғ. (2023). Савдо корхоналарининг инновацион фаолиятини эконометрик моделлаштириш. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(6), 33-38.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

